

5-Mavzu:
O'qituvchi faoliyatida
muloqot madaniyati
va psixologiyasi.





Reja:

- 1.1. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatining shakllanishi.**
- 2. Pedagogik muloqotda muomala madaniyati.**
- 3. Pedagogik muloqot uslublari.**
- 4. O‘qituvchi va o‘quvchining darsda va darsdan tashqari munosabati, unga qo‘yiladigan talablar**



Adabiyotlar:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2006.
2. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. Toshkent: Turon-iqbol, 2006. -115
3. Omonov X.T., Madiyarova S.A. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Magistratura uchun darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2009.
4. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
5. Yuzlikaeva E.R., Madyarova S.A., Yanbarisova E.E., Morxova I.V. Teoriya i praktika obshchey pedagogiki. – T., 2013.

“O’qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi”ga doir blits-so’rov savollari

- 1. Muloqot nima?**
- 2. Kommunikatsiya deganda nimani tushunasiz?**
- 3. Ijtimoiy pertsepsiya nima?**
- 4. Interaktsiya nima?**



Pedagogik muloqot: funktsiyalari va tuzilishi

Psixologik lug'atlarda muloqot tushunchasiga ikki xil ta'rif beriladi:

1) muloqot – hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni;

2) muloqot – belgilar tizimi orqali sub'ektlarning o'zaro ta'sirlashuvi.



Pedagogik muloqot deganda pedagog va o'quvchilar jamoasi o'rtasida o'zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayirboshlashdan, o'quv-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va o'zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat tizimi, usullari va malakalari tushuniladi.



**A.N.Leontev pedagogik muloqotning
tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholar ekan,
quyidagi fikrlarni bildiradi:**

faol pedagogik muloqot – o‘qituvchining, umuman
olganda pedagogik jamoaning ta’lim-tarbiya
jarayonida o‘quvchilarni bilish va o‘rganish kaliti va
o‘quv faoliyatining ijodiy xarakteri, o‘quvchi
shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit
yaratadigan muhim vositadir.

Pedagogik muloqot ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida quyidagi funktsiyalar bilan xarakterlanadi:

**shaxsni o'rganish (bilish),
axborot almashish va faoliyatni tashkil etish.**

Muloqotning axborot almashish funktsiyasi ma'naviy boylik va yangiliklar bilan o'rtoqlashish jarayonini rivojlantirish uchun ijobiy ishtiyoqlar, hamkorlikda ishlash va fikrlash uchun sharoitlar yaratishdan iborat.

Muloqotning eng muhim funktsiyalaridan biri – hamdard bo‘lishdir.

U boshqa kishi hissiyotlarini tushunishi, boshqalar nuqtai nazarini ma’qullash qobiliyatini shakllantirishi jarayonida amalga oshadi va jamoadagi munosabatlarni me’yorga keltiradi.



Bunda o‘quvchiga uning istaklarini tushunish va bular asosida o‘quvchiga ta’sir etish zarurligini anglash o‘qituvchi uchun juda muhimdir.

Pedagogik muloqot pedagogik jarayon mantig'iga mos keladigan dinamik tavsifga ega.

Pedagogik muloqotning tuzilishida quyidagi bosqichlar alohida ajratib ko'rsatiladi:

- 1. Modellashtirish (bashoratga doir)** – pedagogik vazifalarga mos o'zaro harakatning kommunikativ tuzilishini o'ziga xos tarzda rejalashtirishni amalga oshirish.
- 2. Bevosita muloqotni tashkil etish (kommunikativ hujum)** – pedagog tashabbuskorlikni o'z qo'liga oladi, guruhni tezlik bilan ishga jalb etish texnologiyasi

3. Muloqotni boshqarish – qo'llaniladigan ta'sir ko'rsatish metodlarining kommunikativligini ta'minlash (o'quvchilarning tashabbusini qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarning tashabbus ko'rsatishini tashkil etish, dialogik muloqotni yo'lga qo'yish, o'z mo'ljalini real sharoit bilan uyg'un tarzda korrektsiyalash.

4. Amalga oshirilayotgan pedagogik muloqot texnologiyasining borishi va natijalarini tahlil etish.

Pedagogik muloqot uslublari

Psixologiyada turli tipdagi boshqaruvchilarning ijtimoiy psixologik portreti ishlab chiqilgan bo'lib, unda ularning boshqaruvida bo'lgan jamoa bilan muloqoti texnikasi tahlil qilingan.

O'qituvchi ham pedagogik jarayonda muloqotning eng keng tarqalgan uch turidan foydalanadi:

avtoritar, demokratik va liberal.

Avtoritar uslub. Ta'lim oluvchilar faoliyatiga tegishli barcha masalalarni, hattoki kim qayerda o'tirishigacha o'qituvchi yakka o'zi hal qiladi, ta'lim oluvchilar tomonidan ko'rsatiladigan barcha tashabbusni taqiqlaydi. Bu uslubni qo'llovchi o'qituvchining muloqot metodlari sifatida buyruq, ko'rsatma berish va tanbeh xizmat qiladi.

Demokratik uslub. Bunda o'qituvchi jamoa fikriga tayangan holda ish tutadi, faoliyat maqsadini barcha ta'lim oluvchiga etkazishga harakat qiladi, faoliyatning kechishini muhokama qilishga barchani jalb etadi; o'z vazifasini faqat nazorat va munofiqlashtirish deb bilmay, tarbiya bilan ham shug'ullanadi; barcha ta'lim oluvchilarni rag'batlantiradi va ularda o'z-o'ziga ishonchni shakllantiradi; jamoada o'z-o'zini boshqarish rivojlanadi. Bu uslubni qo'llovchi o'qituvchi barcha jamoa a'zolarining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ular o'rtasida vazifalarni teng bo'lishga harakat qiladi; tashabbus va faollikni rag'batlantiradi. Bunday o'qituvchining muloqotda qo'llaydigan metodlari – iltimos, maslahat, axborot berishdir.

Liberal uslub – boshqacha qilib aytganda, anarxik. O'qituvchi jamoa hayotiga umuman aralashmaslikka harakat qiladi, faolligi sust, muammolarni yuzaki ko'rib chiqadi, boshqalarning ta'siriga oson tushib qoladi. Ma'suliyatdan o'zini olib qochadi va o'z avtoritetini yo'qotadi.



V.A.Kan-Kalik pedagogik muloqotni munosabatlar va o'zaro ta'sir uslublari tashkil etishini ta'kidlab, ularni quyidagi tarzda turkumlaydi:

1) hamkorlikda olib boriladigan ijodiy ishga bo'lgan qiziqishga asoslangan muloqot.

Hamkorlikda olib boriladigan *ijodiy ishga bo'lgan qiziqish asosidagi* muloqotda pedagog ta'lim oluvchilar va ishga nisbatan ijobiy yondashadi;

2) **do'stona munosabatlar asosida qurilgan muloqot.** *Do'stona munosabatlar asosida* qurilgan muloqot yuqorida ko'rib chiqilgan muloqot turiga yaqindir. Ayrim pedagoglar do'stona muloqotni noto'g'ri tushunib, chegaradan chiqib ketishadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ma'lum bir masofa bo'lishi kerak. Ushbu masofani aniqlashda o'qituvchining madaniyati, pedagogik takti muhim rol o'ynaydi;

3) **o'qituvchi va ta'lim oluvchilarni ma'lum masofada ushlab turuvchi muloqot.** Ma'lum masofada ushlab turuvchi muloqotni ham samararali deb bo'lmaydi. Shunga qaramasdan bu keng tarqalgan uslubdir. Bunda pedagog va tarbiyalanuvchilar o'rtasida ma'lum chegara mavjud bo'lib, ularni quyidagicha ta'riflash mumkin: “Men bilaman – sizlar bilmaysizlar”; “Meni aytganimni qilinglar – mening yoshim kattaroq, tajribam ko'proq, bizni tenglashtirib bo'lmaydi”. Bu uslub ko'proq avtoritarga yaqinroq bo'lib, u tashqaridan qaraganda tartibli faoliyatni amalga oshirishga yordam berganday bo'ladi, lekin yuqori samarani bermaydi;

4) **qo'rqitishga asoslangan muloqot**. O'qituvchi va ta'lim oluvchilarni ma'lum masofada ushlab turuvchi muloqotning yuqori darajadagi ko'rinishi bu qo'rqitishga asoslangan muloqotdir. U o'zida ta'lim oluvchilarga salbiy munosabat va avtoritar boshqaruvni majassam etadi. Ushbu uslubni yorqin ifodasi sifatida quyidagi gaplarni keltirish mumkin: “Qunt bilan tinglanglar, bo'lmasa ikki qo'yaman”, “Hali kunlaringni ko'rsataman”. Bunday uslub mashg'ulot paytida salbiy muhitni yuzaga keltiradi.

Pedagogik nizo va uning sabablari

Nizo – istaklari, qiziqishlari, qadriyatlarini yoki tushunchalari mos kelmasligi sababli yuzaga keladigan ikki yoki undan ortiq sub'ektlar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro aloqalar shakli (sub'ektlar individ/guruh/o'z o'zi bilan– ichki nizolar holatlarida bo'ladi).

“Nizo” va “nizoli vaziyat” tushunchalarini ajratishni bilish kerak, ular o'rtasida katta farq bor.

Nizoli vaziyat – ijtimoiy sub'ektlar o'rtasida haqiqiy qarama-qarshilikni yuzaga keltiruvchi insonlar manfaatlarining mos kelmasligi. Asosiy belgisi – nizo predmeti yuzaga kelishi, lekin hozircha ochiq faol kurashning yo'qligi. Ya'ni to'qnashuv rivojlanishi jarayonida nizodan oldin har doim nizoli vaziyat yuzaga keladi, uning asosi hisoblanadi.

Nizolarni to'rt turlari ko'rsatiladi:

ichki shaxsiy, shaxsning kuchi bo'yicha taxminan teng motivlari, qiziqishlari, ishqibozligi, manfaatlarining kurashini aks ettiruvchi;

shahslararo, o'z hayotiy faoliyatida qarama-qarshi maqsadlarni amalga oshirishga intiluvchi shahslarni ifoda etadi;

guruhlararo, biri-biriga mos kelmaydigan maqsadlarni ko'zlagan va ularni amalga oshirish yo'lida bir-biriga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy guruhlar nizo tomonlari sifatida ishtirok etishlari bilan ajralib turadi;

shaxsiy-guruhli—shahsning hulqi guruh qoidalari va umidlariga mos kelmasligi holatlarida yuzaga keladi.

Pedagogik konflikt–pedagogik jarayonda shahslararo munosabatlarning keskinlashuvi natijasi sifatida yuzaga keluvchi muamoli vaziyatdir.

Pedagogik konfliktlarning quyidagi shakllari yuzaga keladi:

- 1.O'quvchi-o'quvchi
- 2.O'quvchi-o'qituvchi
- 3.O'qituvchi-o'qituvchi

Pedagogik nizolarning oldini olish yo'llari

Pedagog va ta'lim oluvchi pozitsiyalarining to'g'ri kelmasligi ko'p konfliktlarga sabab bo'ladi, shuning uchun konflikt vaziyatlarda qo'llaniladigan sinalgan quyidagi qoidalarni bilish kerak:

Birinchi qoida. Konflikt vaziyatini o'z qo'lga olish. Bu emotsional taranglikni bartaraf etishni anglatadi. Buning uchun ortiqcha jismoniy zo'riqishdan, ortiqcha hatti-harakatlardan halos bo'lish kerak. Mimika, poza, jestlar faqatgina odamning ichki kechinmalarini ifodalab qolmay, unga ta'sir ham ko'rsatadi. SHunday qilib, tashqi vazminlik va xotirjamlik!

Ikkinchi qoida. O'z xatti-harakatlari bilan sherigiga ta'sir ko'rsatish. Bunda ishtirokchining yuzini diqqat bilan o'rganib chiqish yordam beradi, fikrni jamlaydi va uning holatini aniqlashga imkon yaratadi.

Uchinchi qoida. Hamsuhbatning xatti-harakatlari motivlarini tushuna olish. Aqliy tahlilning ishga solinishi emotsional qizishni pasaytiradi. Yaxshisi holatning murakkabligini tushunganligini ifoda etish (Men sizning holatingizni tushunib turibman...), o'z holatini tushuntirish (Shu meni o'ylantiryapti...) Ya'ni hatti-harakatni darrov baholamang, oldin tug'ilgan vaziyatga bo'lgan munosabatingizni bildirishga harakat qiling.

To'rtinchi qoida. Maqsadni uvofiqlashtirish. Ta'lim oluvchi bilan sizni birlashtiruvchi narsani tezroq anglash va uni ko'rsatish.

Beshinchi qoida. Samarali yechim borligiga ishonishingizni namoyish qiling. Va nihoyat, konflikt hal qilinganidan so'ng uni tahlil qilib chiqing (sababi va oldini olish yo'llari).

Pedagog va o'quvchi o'rtasida haqiqatda yuzaga kelgan nizoni uch darajalarda tahlil qilish mumkin:

- Ta'lim muassasasida o'quv–tarbiyaviy ishlarini tashkil qilish ob'ektiv hususiyatlari nuqtai nazaridan;
- guruh, pedagogik jamoa, o'qituvchi va o'quvchining aniq shahslararo munosabatlari ijtimoiy–psihologik hususiyatlari nuqtai nazaridan;
- nizo ishtirokchilari yoshi, jinsi, individual-psihologik hususiyatlari nuqtai nazaridan.

Agar butun ta'lim jarayonini tashkil qilish va sharoitlarida, jamoali qoidalar va tartiblar tizimida, ushbu jarayonning bir-birlariga nisbatan ijobiy munosabatlari, bo'lajak nizolarda konstruktiv hулqlariga tayyorliklarida haqiqiy ob'ektiv va sub'ektiv o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlansa, nizo samarali hal qilingan hisoblanishi mumkin.

E'TIBORINGIZ
UCHUN
RAHMAT!

